

**O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SOHASI VA UNING
RIVOJLANISHIDA INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI**

Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Mustaqil izlanuvchisi

Email: shamsiddinbolliyev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada kichik biznesga investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari, investitsion faollikka ta’sir etuvchi omillar hamda moliyalashtirish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: investitsion muhit, investitsiya siyosati, tadbirkorlik, moliyalashtirish, investitsiya, kichik biznes, sog‘lom raqobat.

Аннотация. В статье анализируются теоретические основы привлечения инвестиций в малый бизнес, факторы, влияющие на инвестиционную активность, и механизмы финансирования. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по повышению эффективности привлечения инвестиций.

Ключевые слова: инвестиционный климат, инвестиционная политика, предпринимательство, финансирование, инвестиции, малый бизнес, здоровая конкуренция.

Abstract. The article analyzes the theoretical foundations of attracting investments in small businesses, factors affecting investment activity, and financing mechanisms. As a result of the research, scientific and practical recommendations were developed to increase the efficiency of attracting investments.

Keywords: investment climate, investment policy, entrepreneurship, financing, investment, small business, healthy competition.

Kirish. Kichik biznesning iqtisodiy mazmunini to‘liq anglash uchun uning me‘yoriy-huquqiy ta‘rifi va tasniflash mezonlariga e‘tibor qaratish lozim. Jahon amaliyotida kichik biznes subyektlari, odatda, band xodimlar soni, yillik aylanma yoki aktivlar qiymati kabi mezonlar asosida mikro, kichik va o‘rta korxonalarga ajratiladi. O‘zbekiston qonunchiligida ham kichik tadbirkorlik subyektlari tarkibiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiritilib, ularning maqomi faoliyat turi va o‘rtacha yillik xodimlar soniga qarab belgilanadi. Milliy statistika qo‘mitasi metodologiyasiga ko‘ra, kichik tadbirkorlik subyektlari qatoriga kichik korxona va mikrofirmalar bilan bir qatorda dehqon va fermer xo‘jaliklari, oilaviy tadbirkorlar, hunarmandlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar ham kiritiladi. Bunday keng qamrovli tasnif kichik biznesning iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarini – savdo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va xizmatlar sohasini – qamrab olishini ko‘rsatadi. Aynan shu xilma-xillik kichik biznesni iqtisodiyotning eng moslashuvchan va tashqi ta‘sirlarga chidamli bo‘g‘iniga aylantiradi, shu bilan birga uning investitsiyaga bo‘lgan ehtiyoji ham tarmoq xususiyatlariga qarab turlicha bo‘lishini taqozo etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi. U aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlar va ayollar uchun ish bilan bandlik hamda mustaqil daromad manbaini ta‘minlaydi, mehnat migratsiyasini kamaytiradi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Kichik korxonalar orqali aholi tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega bo‘ladi, o‘rta sinf shakllanadi va jamiyatda ishbilarmonlik madaniyati rivojlanadi. Mahalliy tadqiqotchilar kichik biznesning ijtimoiy ahamiyatini keng yoritib, uning yangi ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy tenglikni ta‘minlashdagi rolini asoslab berishgan. Mahallabay ishlash tamoyili asosida

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirish orqali kambag'allikni qisqartirish kichik biznesning ijtimoiy yo'nalishini yanada kuchaytirmoqda. Shu ma'noda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va unga investitsiyalarni jalb etish iqtisodiy siyosat bilan bir qatorda ijtimoiy siyosatning ham ajralmas qismi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodchi olimlari ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolarini chuqur o'rgandilar. B.K. G'oyibnazarov, H.O. Rahmonov va boshqa tadqiqotchilar mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini hamda uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ilmiy asoslab berdilar. Mahalliy mualliflar tomonidan aholi bandligini ta'minlashda kichik biznesning imkoniyatlari, uni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalashning ilg'or xorijiy tajribasi keng tahlil qilingan. Bu tadqiqotlar kichik biznesning iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va kambag'allikni qisqartirishdagi rolini ochib berib, soha rivojining milliy modelini shakllantirishga xizmat qildi. Shuningdek, kichik biznes sohasining iqtisodiy samaradorligini statistik ko'rsatkichlar asosida baholashga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlar ushbu sohaning bandlik, yalpi ichki mahsulot, sanoat, qishloq xo'jaligi, investitsiya, eksport va importdagi ulushini yillar kesimida tahlil etib, soha holatining yaxlit manzarasini yaratdi. Olimlarning ilmiy qarashlari kichik biznesga investitsiyalarni jalb etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishda muhim metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining izchil ustuvor yo'nalishi bo'lib, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mulkchilikning xilma-xil shakllarini qaror toptirish, xususiylashtirish va tadbirkorlik erkinligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. So'nggi yillarda, xususan 2017-

yildan e'tiboran, ushbu yo'nalishdagi islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritish tartiblari soddalashtirildi, ruxsat berish hamda litsenziyalash jarayonlari qisqartirildi, soliq yuki yengillashtirildi, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish tizimi mustahkamlandi va Biznes-ombudsman instituti joriy etildi. Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan ayrim moliyaviy sanksiyalarni faqat sud tartibida qo'llash amaliyotining yo'lga qo'yilishi, byurokratik to'siqlarning kamaytirilishi ayniqsa kichik va o'rta biznes uchun muhim adolatli qadam bo'ldi. 2023-yil 1-sentabrda tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xususiy sektor ulushini oshirish va investitsiya muhitini yaxshilash markaziy o'rin egalladi, 2024-yil esa "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinib, sohaga yo'naltirilgan amaliy chora-tadbirlar yanada kuchaytirildi. Ushbu izchil islohotlar kichik biznesning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari o'sishida bevosita aks etmoqda.

Olib borilgan islohotlar natijasida kichik biznes sohasi miqdoriy jihatdan barqaror o'smoqda. Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-oktabr holatiga respublikada faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 million 212 ming birlikni tashkil etgan bo'lib, ulardan 479 mingtasi kichik korxona va mikrofirmalar, 281,9 mingtasi yakka tartibdagi tadbirkorlar, 422,3 mingtasi dehqon xo'jaliklari hamda 22,1 mingtasi hunarmandlar hissasiga to'g'ri kelgan. Har ming aholiga to'g'ri keladigan kichik tadbirkorlik subyektlari soni o'rtacha 32,1 birlikni tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkich Xorazm viloyatida (43,5), Toshkent shahrida (43,4), Sirdaryo (37,7) va Buxoro (37,5) viloyatlarida qayd etilgan. 2025-yilning yanvar–sentabr oylarida 62,2 mingta yangi kichik korxona va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, ularning eng ko'pi savdo (22 918 ta), sanoat (8 088 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (7 714 ta) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari (5 513 ta) sohalarida ro'yxatdan o'tgan. 2026-yil 1-

yanvar holatiga mamlakatdagi 474,9 ming korxona va tashkilotning 403,8 mingtasini, ya'ni qariyb 85 foizini kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etgan, o'tgan yil davomida yangidan tashkil etilgan korxonalarning 87,8 foizi aynan kichik biznes subyektlari bo'lgan. Bu raqamlar kichik biznesning mamlakat ishbilarmonlik muhitidagi keng tarqalganligini va uning hududiy iqtisodiyotni shakllantirishdagi tayanch mavqeyini ko'rsatadi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etishning ilmiy-nazariy asoslari uch yo'nalishda – sohaning iqtisodiy mohiyati va investitsiyalarning ahamiyati, investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari hamda xorij tajribasi nuqtai nazaridan tadqiq etildi. Tahlil kichik biznes milliy iqtisodiyotning eng faol va dinamik bo'g'ini ekanligini, u yangi ish o'rinlari yaratish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish hamda hududlarni rivojlantirishda yetakchi rol o'ynashini ko'rsatdi. O'zbekistonda kichik biznes yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'prog'ini ta'minlab kelmoqda va sohani rivojlantirishda investitsiyalar hal qiluvchi omil bo'lib qolayotgani asoslandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <http://stats.oecd.org/>
2. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010;
3. Портер М.Э. Конкуренция / пер. с англ. – М.: Изд. Дом «Вильямс», 2005. – 808 с.;
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст]/ Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.;
5. Маршалл А. Принципы экономической науки/ А.Маршалл: В 3 т. - М.: Прогресс-Т.3. 1984. - 119 с.;

6. Regional labor markets. Analitical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. – Elsevier Science Publishing Co, 1987. – 500 p.;